ABDUQAYUM YO‘LDOSH HIKOYALARIDA ZAMONAVIY VOQELIK VA INSON MA’NAVIYATI MUAMMOLARI

Muxidinova Shahnoza
BuxDU Adabiyotshunoslik (o‘zbek)
yo‘nalishi II bosqich magistranti

Inson ma’naviyati har qanday zamonda yetakchi mavzu bo‘lib kelgan. Ayniqsa, ijodkor ahlining asosiy maqsadi, asarlaridagi g‘oya, ko‘pincha o‘xshash, ya’ni shaxs ma’naviyati, uni yuksaltirish, dillarda yovuzlikka nafrat, ezgulikka muhabbat hislarini uyg‘otish. Lekin cheksiz olamda bir-biriga to‘liq o‘xshash biror hodisa yo‘q. Badiiy asar va undagi qahramonlar tasviri esa, ayni shu xilma-xillikning, o‘ziga xoslikning badiiy ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi.

“Haqiqiy yozuvchi mavzu tanlaganda uning yangiligiga va jamiyatning bugungi ehtiyojlari jihatidan muhimligiga alohida e’tibor beradi. Asar mavzusi va uning “hal etilishi”, ya’ni muammo yechimining jamiyat siyosiy, ijtimoiy va tarbiyaviy ehtiyojlarga ko‘ra ijobiy ahamiyatga egaligi “aktuallik”[1] deb ataladi [2]. Chindan ham badiiy asarning mavzusi va g'oyaviy mohiyati yozuvchi yashagan davr ijtimoiy muhiti va kelajak uchun ham muhim ahamiyatga ega bo'lishi kerak. Yozuvchi Abduqayum Yo'ldosh hikoyalari ana shunday jihatlari bilan e'tiborni tortadi.

Hikoyanavis Abduqayum Yo‘ldoshning o‘ziga xosligi shundaki, uning hikoyalarida jamiyatda uchrab turadigan muammolar – ikkiyuzlamachilik, zo‘ravonlik, loqaydlik, beparvolik, bepisandlik, xudbinlik, shuhratparastlik, kibr, mahmadonalik, sovuqqonlik, tanqidga chidamsizlik, bir so‘z bilan aytganda, ko‘pincha shaxs, jamiyat ma’naviyatidagi bo‘shliqlar haqqoniy aks ettirilgan. Bunday illatlar barcha davrlardagi singari bugungi kun kishilari hayotida ham uchrab turadi. Yozuvchi hikoyalarida kundalik turmushimizda uchrab turadigan bunday holatlarni chuqur tahlil qilishga kirishadi. Hikoyalarda haqqoniy hayot manzaralari, millat, el-yurt g‘ami, orzu-intilishlari ifodasini badiiy bo‘yoqdorlik bilan ifodalaydi. Jumladan, adibning “Homiy”, “Mashaqqatlar osha yulduzlar sari”, “Boy”, “Mix”, “Alvido, go‘zallik”, ”O‘zgalar fikri”, “Muammo bormi?”,”Hissa”, “Bandi”, “Yetim so‘z” kabi bir qancha hikoyalarida jamiyatda uchrab turadigan muammolar, insonlar o'rtasidagi ayrim ziddiyatlar qalamga olinadi. Bunday muammolarning ma'naviy-axloqiy va ijtimoiy mohiyatini badiiy asoslashga harakat qilgan adib, kitobxonni ibratli va hayotiy misollar vositasida tarbiyalash maqsadini ko'zda tutadi.

“Homiy” hikoyasi yurtimiz mustaqillikka erishganiga hali uncha ko‘p bo‘lmagan, 1995-yillarda yozilgan edi. Xotin-qizlar masalasi, ularga munosabat, ularning jamiyatdagi mavqeini mustahkamlashga bo‘lgan e’tibor ham bugungidek emas edi.

Hamma o‘z tashvishi, dardi bilan ovora: bilim yurti direktori – Amir Xonkeldiyev qanday qilib bo‘lmasin homiylar topish va ularning ko‘nglini olish bilan; guruhdagi qizlar homiy tomonidan beriladigan pul bilan; homiy – “Salomat” korxonasining bosh direktori, hurmatli qirq-qirq besh yoshlardagi Azizjonov Sunnatillajon aka esa “homiy”lik orqasidan o‘zining manfur niyati, ya’ni o‘ziga farishta misoli suluv – Oysuluvni “sekretar” (o‘ynash) qilib olish bilan. Biror bir kishi yo‘qki, hali o‘n yetti yoshli qiz Oysuluvning or-nomusi, orzu-istaklari, maqsadlari, fikri bilan hisoblashsa…(Hali qizning ota-onasi bu voqealardan bexabar…). Hikoyada aks etgan

[1] Aktual (inglizcha) – “ bugungi kunga taaluqli”, zamonaviy demakdir.
[2] Султон И. Адабиёт назарияси. Т .: « ЎҚИТУВЧИ».1996. – Б. 174

voqelik asosida kitobxonda manfaatparast va tuban kimsalarning qilmishlariga nisbatan nafrat uyg‘onadi.

“Homiy”ni-ku qo‘ya turaylik, atrofdagilar – yaqinlari – direktor, guruhdoshlari o‘z manfaatlari yo‘lida Oysuluvni qurbon qilishga-da tayyor. Oysuluv jon-jahdi bilan ularga qanchalik qarshilik ko‘rsatmasin, baribir uning yolg‘iz o‘zi hech nima qilolmaydi, nimadir qilishga kuchi ham yetmaydi, chunki u ojiza, muhit, jamiyatdagilar bunga yo‘l qo‘ymaydi. Buning sababi, qizning dunyoqarashi bilan atrofdagilar dunyoqarashi o‘rtasida uzilish, bir-birini anglamaslik bor.

Muallifning bu hikoyasida alohida bir holat, xarakter, kayfiyat, ruhiyat manzarasi, undagi o‘zgarishlarni namoyon etuvchi konkret belgilar tasviri va shu asosda, ko‘z o‘ngimizda gavdalangan hayotning shafqatsiz bir parchasi, insoniylikni, insoniy tuyg‘ularni haqoratlagan axloqsizlikning aniq ifodasi mavjud.

Abduqayum Yo‘ldoshning hikoyalarining ko‘pchiligida voqea-hodisalar oxiri yakunlanmay qoladi, qahramonlar taqdiri, keyingi kechmishi haqida aniq ma’lumot berilmaydi, demakki, xulosa chiqarishni kitobxon ixtiyoriga qoldiriladi. Jumladan, “Homiy” hikoyasida ham shunday. Balki Oysuluv or-nomusi uchun oxirigacha kurashgandir, bunday pastkashlarga yengilmaslik uchun o‘zida kuch, qat’iyat topgandir, balki jamiyatdagi bunday chirkin muhit uni va uning orzularini parchalagandir. Hikoyani qanday xotimalash kitobxonning dunyoqarashiga, xohish-istagiga bog‘liq. Asar qanday tugallangan taqdirda ham, muhimi, insonning oldinga intilib yashashi, o‘zini anglash harakati, mag‘lubiyatlardan to‘g‘ri saboq chiqara bilish salohiyatidir.

Qanday ijtimoiy muhit va tuzum bo‘lishidan qat’i nazar, badiiy adabiyot hayot materiali orqali shaxs tabiatidagi odamiylik va g‘ayriinsoniylikni, uning ko‘rinishlari va ma’nosini aks ettiradi. Shu ma’noda Abduqayum Yo‘ldosh hikoyalarining qahramonlari ham insoniylik va vijdon chegarasi uchun zaruriy mezonni belgilay olmay qiynaladilar. Ular bu jarayonda toblanadi, muayyan xulosalarga kelish bosqichlarini boshdan kechiradilar. Adibning “Mashaqqatlar osha yulduzlar sari” hikoyasida xudbinlik illati qoralangan; shuhratparastlik ortidan quvadigan, moddiy boylikni ma’naviy boylikdan ustun qo‘yuvchi bugungi kimsalar xarakteri ochib berilgan. Bunday insonlar tabiatidagi kamchiliklar ochib berilgan.

Kimsan dunyoning yigirmadan ortiq nufuzli universitetlarining faxriy doktori, “Nobel” mukofoti laureati qanchalik kuyib-pishib tushuntirmasin, yo‘l-yo‘riq ko‘rsatmasin ota-onalar bilan til topisha olishmaydi. “Agar bugun sizlar farzandlaringizda mutolaadan manfaat izlashni emas, ijodkorlik, izlanuvchanlik, buyuk ishlarga rag‘batni o‘rgatsangiz, tong sahar ularni “Sen mashina yutishing kerak” deb emas, “Seni buyuk ishlar kutmoqda. Axir sen yagonasan, betakrorsan”, deb uyg‘otsangiz, erta-indin ular safidan o‘nlab, yigirmalab daholar chiqsa ne tong. Shu emasmi asl orzularingiz, muhtaram xonimlar va janoblar?”[3]. Ammo haqiqatdan ham ota-onalarning orzusi bu emas-da, ularning maqsadi – mashina yutish. Undan so‘ng daholar orasida to‘qqizinchi o‘rinda turuvchi – Perelmanning oldiga borishmoqchi, lekin uni ham masalani yechib, mukofotga berilgan million dollardan voz kechgani uchun tentakka chiqarashadi, dunyo tan olgan to‘qqizinchi dahoni-ya. Ha, hamma bu dunyoni o‘z qarichi bilan o‘lchaydi, deb bejiz aytishmagan axir. O‘zimizdan chiqqan buyuklarni, o‘zligini, tarixini bilmaydigan ota-onalar Behbudiyning “Behuda sarflarga ketadigan xarajatlarni ilmga sarflamoq kerakdir. Ilm bizning omilimiz, idealimiz, murodimiz, tilagimiz va muddaomizdir. Hozir barcha kuchni ilm olishga

[3] Yo`ldosh A. Mashaqqatlar osha yulduzlar sari. – T.: Yangi asr avlodi, 2021. – B. 216.

qaratmasak, zabun bo‘lurmiz”[4], – degan fikriga ham javoblari tayyor – “Ilmni ideal deb bilgan odamdan tuzuk-quruq yo‘l-yo‘riq chiqishiga ishonib bo‘lmaydi”[5]. Bu hikoyani o‘qigan kitobxon, unda aks etgan voqelikdan hayratlanishi, xulosa chiqarishga qiynalishi, tabiiy.

2021-yilda yozilgan bu hikoyaning yakuni quyidagi fikr bilan nihoyasiga yetkazilgan: “Gap-so‘zlarga qaraganda, bu guruh haligacha farzandlari, albatta, mashina yutib olishi uchun o‘zlariga joyali, aniq maslahat bera oladigan aqlli odamni izlab yurganmish…”[6].

Chindan ham ota-onalar o‘zlari yetisha olmagan maqsadlariga farzandlari orqali erishmoqchi bo‘ladilar. Ammo ayrimlar esa farzandlarining qiziqishi, intilishlari bilan qiziqmaydilar, yoshlarga kasb tanlashda qiziqishi, layoqati e’tiborga olinmay, ko‘proq moddiy manfaat, obro‘-e’tibor ortidan quvishga o‘rgatadilar, aniqrog‘i “majburlaydilar”. Natijada ko‘pchilik yoshlar jamiyatda o‘z o‘rnini topolmaydi. Asar mutolaasi natijasida avval ota-onalarning o‘zini tarbiyalash zarurligi haqidagi haqiqatga iqror bo‘lish mumkin. Asarda aks etgan g‘oyaviy qarashga ko‘ra bolani yoshlikdanoq o‘zi qiziqqan sohaga yo‘naltirib borish kerak. Ammo hikoyada aks etgan voqealar natijasi esa tamoman teskari mohiyatga ega. Ota-onaning farzandiga bo‘lgan mehri, e’tibori, unga bo‘lgan munosabatlarining zamirida manfaat ustuvorlik qiladi. Shu boisdan ham bunday holatlar natijasida otalar va bolalar o'rtasidagi ziddiyatlar ham ijtimoiy muammolarning kelib chiqishiga bois bo‘ladi.

“Homiy” hikoyasida jamiyat, yon-atrofdagilar ojiza, yordamga muhtoj insonning ustidan hukm yuritsa, “Boy” hikoyasida jamiyatning o‘zi ovuldagi aqlan sal zaifroq, “dovdir, merov”, qisqasi, “jinni” Xo‘rozqulni qo‘shxotinli boyga aylantirib qo‘ydi. Oddiygina cho‘ponlikdan, ovulning eng boy, eng hurmatli akaxoni darajasiga ko‘tarib qo‘yishdi. Qishloqqa kim kelmasin Xo‘rozboyni ziyorat qilmay ko‘rsin-chi, “Meni mensimadi, beobro‘ qildi”[7] deb qasdiga olsa, unsiz, moysiz qoldirish yoki somonxonasiga o‘t qo‘yib yuborishdan ham toymaydi. Hattoki u bunday kishini ovuldan ko‘chib ketishga majbur qiladi, hech kim ayblay olmaydigan vaji ham tayyor – “spravka”si bor.

Hikoyada tasvirlangan voqelik orqali loqayd va johil kishilarning ta’sirida jamiyatning tanazzulga yuz tutishi mumkinligi, ko‘plab insonlarning hayoti, kelajagi tahlika ostida qolishi, mutelik va ma'naviy qadriyatlarning toptalishiga bois bo‘ladigan muammolarning kelib chiqish asoslari ochib berilgan.

Yozuvchining “Hissa” hikoyasiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, hikoyada yozuvchi va hikoyachi o‘rtasidagi suhbat aks etgan. Ikki-uch yil bir sinfda o‘qigan hikoyachi va uning o‘rtog‘i Rixsitilla o‘rtasidagi “to‘yona musobaqasi”ning kim o‘zarga, hikoyachining tili bilan aytganda, “tobora kattalashib-shishib, vahimali tarzda ulkanlashib-bahaybatlashib borishi”[8] tasvirlangan. Yettinchi yoki sakkizinchi sinfda qo‘shni qishloqdagi maktabdan kelgan Rixsitilla sal odamoviroq bola edi. Shahar ko‘rgan hikoyachimiz institutni tugallash arafasida qishloqqa kelganida dalada suv, chopiq ishlari bilan shug‘ullanib yurgan, yaqinda uylangan sinfdoshi Rixsitilla bilan uchrashib qoladi va to‘yiga chaqirmaganligidan biroz o‘pkalaydi. Hammasi mana shundan boshlanadi. Lavlagiday qizargan Rixsitilla “Nasib qilsa…bolalarning to‘yiga”[9] deydi. Oradan besh olti yil o‘tib bu suhbatni unutib ham yuborgan hikoyachimizni Rixsitilla so‘rab-

[4] O`sha asar, 218-b.
[5] O`sha asar. – 218-b.
[6] O`sha asar. – 218-b.

[7] Йўлдош А. Бой. // Ёшлик, 2014. – № 1. – Б. 26-30.
[8] Yo‘ldosh A. Mashaqqatlar osha yulduzlar sari. – T.: Yangi asr avlodi, 2021. – B. 210.
[9] Yo‘ldosh A. Mashaqqatlar osha yulduzlar sari. – T.: Yangi asr avlodi, 2021. – 207 b.

surishtirib uch marta o‘g‘lining sunnat to‘yiga aytib ketadi. Rixsitilla do‘stining tashrifidan o‘zida yo‘q xursand, uning atrofida parvona. Albatta, to‘yga to‘yonasiz kelib bo‘lmaydi.

Oradan yillar o‘tdi, to‘ylar to‘ylarga, to‘yonalar to‘yonalarga ulanib ketdi. “To‘yona qarzday gap. Bo‘yinda qarz bilan o‘tib ketish yomon”[10]. Ikki hissa, uch hissa,…olti hissa. Rixsitillaning ahvoli ma’lum, cho‘pday ozib, rangi ham battar qorayib, nuqul yerga qaragani-qaragan. Xullas, buncha to‘yonani topishning o‘zi bo‘lmaydi. Lekin bu musobaqa to‘xtamadi, yetti, sakkiz, to‘qqiz hissa … Rixsitillaning turish-turmushini bilgani uchun musobaqani to‘xtatish maqsadida keyingi to‘yiga taklif qilmasa-da, qaddi yoyday bukilgan Rixsitilla do‘stining to‘yiga o‘n hissalik to‘yona ko‘tarib keldi. To‘yonalar shunchalik kattalashib borardiki, bu musobaqani to‘xtatishning iloji yo‘q.

Hikoyachi birgina Rixsitillani tilga oladi, ammo unda bunaqa rixsitillalar: qarindosh-urug‘, sinfdoshlar, kursdoshlar, rafiqa tomondan qarindoshlar, qudalar… juda ko‘p. Ularning hammasi bilan shunday musobaqa o‘ynaydi. Balki bunaqa musobaqalar bir kun o‘zini xarob qilar , lekin shundayam tin olmaydi…

Muallif bu voqeani tasvirlash bilan moddiyat orqali obro‘-e’tibor orttirib, hayotni faqat moddiy boyliklar bilan o‘lchaydigan, umrini mana shunaqa kim o‘zarga behuda o‘yinlar bilan o‘tkazayotgan ayrim odamlarning fojeasini o‘ziga xos tarzda talqin etgan.

Hech bir shaxs jamiyatdan ayri yashay olmaydi, rivojlana olmaydi. Inson jamiyatda o‘zligini anglaydi va shakllanadi. Inson xarakteri, ma’naviy olami ijtimoiy munosabatlarda namoyon bo‘ladi. Abduqayum Yo‘ldosh hikoyalarining qahramonlarida insonlar o‘rtasidagi ijtimoiy masalalar va bunda inson ma’naviyati muammolari o‘ziga xos tarzda talqin etilgan.

Adabiyotlar:

1. Адабий турлар ва жанрлар. Уч жилдлик. Биринчи жилд. – Т.: Фан, 1991. – 384 б.
2. Shohsanam Davronova EASTERN AND WESTERN LITERARY TRADITION IN THE MODERN UZBEK NOVELS // World science. 2016. №5 (9). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/eastern-and-western-literary-tradition-in-the-modern-uzbek-novels (дата обращения: 18.10.2022).
3. Davronova Shohsanam G’aybulloevna. (2022). The Issue of Artistic Image of Nature and Method In The Works Of Isajan Sultan (On The Example Of “The Missing Motherland”). *Indonesian Journal of Innovation Studies*, *18*. https://doi.org/10.21070/ijins.v18i.617
4. Yo‘ldosh Q.,Yo‘ldosh M. Badiiy tahlil asoslari. – T., 2016. – 306 b.
5. Yo‘ldoshev A. Mashaqqatlar osha yulduzlar sari. –T.: Yangi asr avlodi, 2021. – 219 b.
6. Йўлдош А. Бой. // “Ёшлик”, 2014. – № 1. – Б. 26-30.
7. Султон И. Адабиёт назарияси. – Т.: Ўқитувчи, 1980. – 394 б

[10] O`sha asar. – 209 b.